



# PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA TA'LIM YO'NALISHIDA

## O'QITISH METODIKASI MASALALARI

*M.Xudoynazarova*

*Pedagogik Mahorat markazi*

*Pedagogika va psixologiya, ta'lism*  
*texnologiyalari kafedra o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada pedagogika va psixologiya ta'lism yo'nalishida pedagogik turkum fanlarni o'qitish metodikasi fani fanlar mazmuniga ma'lumotlarni tanlash va tinglovchilarga bayon etishda ilmiy metodologiyaga asoslanishi hamda, ilmiy metodologiya nazariy bilimni egallash va amaliy faoliyatni tashkil etish tamoyillari va usullari tizimini aniqlovchi, nazariy ma'lumotlarni, amaliy faoliyatga qo'llashni aniq belgilashi haqidagi ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** O'qitish metodikasi, ta'lism metodlari, pedagogika, psixologiya, motivatsiya, kognitiv rivojlanish, didaktik prinsiplari, pedagogik texnologiyalar, ta'lism jarayoni, o'quv faoliyati.

## ВОПРОСЫ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ПО БРАЗОВАТЕЛЬНОМУ НАПРАВЛЕНИЮ ПЕДАГОГИКИ И ПСИХОЛОГИИ

**Аннотация:** В статье дана информация о том, что педагогика и психология в образовании у развитии педагогического класса основывается на научной методологии при отборе и изложении информации по предметному содержанию, а научная методика определяет систему принципов и методов приобретения теоретических знаний и организации практической деятельности, конкретизирует применение теоретической информации к практической деятельности.

**Ключевые слова:** методика обучения, методы обучения, педагогика, психология, мотивация, познавательное развитие, дидактические принципы, педагогические технологии, образовательный процесс, учебная деятельность.



## ISSUES OF TEACHING METHODOLOGY IN THE EDUCATIONAL DIRECTION OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY

**Annotation.** The article provides information on the basis of scientific methodology in the selection and statement of information to the audience of the content of the subjects of the teaching methodology of the pedagogical category of subjects in the educational and psychological education and clearly defines the system of principles and methods of mastering theoretical knowledge and organizing practical activities, the application of theoretical information to practical activities.

**Keywords:** teaching methodology, educational methods, pedagogy, psychology, motivation, cognitive development, didactic principles, pedagogical technologies, educational process, educational activity.

Har bir fan kishilik jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy taraqqiyotiga u yoki bu yo'nalishda hissa qo'shar ekan o'z sohasi bo'yicha o'zining mavzusi (fan), maqsadi vazifalariga ega bo'ladi.

Pedagogika fanlarini o'qitish metodikasining shakllanish jarayoni va o'rganish mavzusi pedagogika fanini o'quv fani sifatidagi rivoji bilan bog'liq. Ma'lumki, pedagogika o'quv fani sifatida ijtimoiy-siyosiy tajribalarni tizilmalashtirish, umumlashtirish, ularni yosh avlodga yetkazish hamda yoshlarni hayotga, mehnatga tayyorlash sifatida paydo bo'ldi va rivojlandi. Darhaqiqat, inson tarbiyasining oliy mahsuli, jamiyatda iqtisodiy-madaniy hayotni rivojlantiruvchi kuch timsolida o'z aql-zakovati, erkin va mustaqil fikr yurituvchi mavjudot hisoblanadi. Shu aql-zakovat, idrok, erkin va mustaqil, fikrni aniq maqsadlarga yo'naltiruvchi fan sifatida pedagogika fani paydo bo'ldi va ta'lim-tarbiya o'quv predmeti sifatidalib nom oldi va jamiyatga xizmat qildi.

Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishida pedagogik turkum fanlarni o'qitish metodikasi fani fanlar mazmuniga ma'lumotlarni tanlash va tinglovchilarga bayon etishda ilmiy metodologiyaga asoslanadi. Chunki, ilmiy metodologiya nazariy bilimni egallash va amaliy faoliyatni tashkil etish tamoyillari va usullari tizimini aniqlovchi, nazariy ma'lumotlarni, amaliy faoliyatga qo'llashni aniq belgilaydi. Shu nuqtai

nazardan pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasi pedagogik nazariya va uning amaliy faoliyatdagi o‘rnini belgilash va tadbiq qilish yo‘llarini maqsadga muvofiq yo‘naltirishga muvaffaq bo‘ladi.

Ta’lim-tarbiya ijtimoiy- iqtisodiy, ma’naviy – madaniy rivojlanishining ustuvor yo‘nalishi qilib belgilanishi pedagogika fanini o‘qitishni yanada takomillashtirish va ma‘suliyatini yuksaltirishni taqozo qiladi. Shunga ko‘ra pedagogika va psixologiya yo‘nalishida pedagogika fanini o‘qitish metodikasining maqsadi pedagog-murabbiylarga ilmiy-amaliy tarbiyashunoslik asoslarini mukammal egallahash uchun tarbiya nazariyasi, ta’lim nazariyasini, shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni puxta egallahashga ko‘maklashishi va tarbiyachilikning dastlabki malakalarini tarkib toptirishdir. Bu maqsad quyidagi vazifalarni hal etish orqali amalga oshiriladi.

- Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun,

- Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko‘rsatilgan mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy muammolarni hal etishga qaratilgan masalalarni puxta o‘rganish va shu asosda pedagogika fani taraqqiyotida nazarda tutilgan barkamol, ishbilarmon, siyosiy va ma’naviy ongi yuksak yoshlarni tarbiyalash yo‘llarini o‘rganish.

-Pedagogika fanlari mazmunini puxta o‘zlashtirish va ularni amalga qo‘llash yo‘llarini bo‘lajak o‘qituvchi-tarbiyachilar ongi va shuuriga singdirishga yaqindan ko‘maklashish.

- Barkamol avlodni shakllantirishning dastlabki bosqichda pedagoglar ijtimoiy shart-sharoitlarni inobatga olib, o‘qituvchilik faoliyatiga tayyorlanayotgan talabalarga umumiy pedagogika, mакtabgacha pedagogika, oila va ijtimoiy pedagogika mazmunidagi ma‘lumotlarni egallahslari, pedagogik bilim, ko‘nikma va malakalarni egallahashga amaliy yordam ko‘rsatish.

- Pedagogika va psixologiya yo‘nalishida pedagogika fanlarini o‘qitish metodikasining yana bir muhim vazifasi umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlarini e‘tiborga olib, bo‘lajak o‘qituvchi

tarbiyachilarda shaxs tarbiyasi mazmunini puxta o‘ganishni, milliy mafkura talablari asosida egallah yo‘llarini o‘rgatish.

- Pedagogika fanini o‘qitish metodikasi mehnat tarbiyasi va kasb tanlashni aniq belgilashda pedagogika fanlari muhim ahamyat kasb etishi va tarbiyalanuvchi yoshlarning axloqiy-estetik, fuqarolik tarbiyasida bu fan yutuqlarini izohlashning o‘rni beqiyosligini ko‘rsatish maqsadida metodikaning zamonaviy o‘quv-tarbiya texnologiyalaridan foydalanishni yo‘lga qo‘yish.

- Pedagog tarbiyachi uchun ta’lim-tarbiyaning noan‘anaviy shakli, metod, usullari yutuqlar garovi ekanligini tushuntirgan holda ta’lim muassasalarida o‘quv tarbiyaviy ishlarni noan‘anaviy pedagogik nazariyalar asosida qura olish malakalarini hosil qilish.

Qayd qilib o‘tilganidek pedagogika fanlarini o\_qitishning metodikasining printsiplari o‘quv-tarbiya jarayonlarining tashkiliy-didaktik asoslariga qo‘yiladigan ijtimoiy-pedagogik talablarni, uni boshqarishda rioya qilinadigan meyorlar sifatida amal qiladi.

Pedagogik texnologiya o‘z mohiyatiga ko‘ra sub’ektiv xususiyatga ega. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat’iy nazar texnologiyalar:

— pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi;

— o‘qituvchi o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirishi;

— o‘quvchilar tomonidan o‘quv predmetlari bo‘yicha puxta bilimlarning egallanishini ta’minlashi;

— o‘quvchlarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishi;

— o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;

— pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g‘oyalarining ustivorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Ta’lim - juda keng ma’noga ega bo‘lib, u bilim, kunikma va malakalarni o‘zlashtirish, o‘rganish, o‘rgatish jarayonidir. Bu ta’rif hozirgi zamon ta’limi uchun yetarli emas. Chunki xozir mustakillik davrida ta’lim o‘zining mazmuni bilan u

o‘quvchilarga bilim, ko‘nikma va malakalar berish bilan birga, u o‘quvchilarni xozirgi zamон ruxida milliy kadrlar, jaxon madaniyati va maorifining ilg‘or g‘oyalaridan oqilona foydalanib tarbiya beruvchi, bola shaxsini rivojlantiruvchi, uni mustakil fikrlashga u o‘rgatuvchi, ilmiy tushuncha va izlanishlarga layokatli qiluvchi ta’lim xamdir.

Ta’lim ikki tomonlama jarayon;

1-dan, o‘quvchi tomonidan bajariladigan, boshqariladigan,

2-dan, u o‘quvchi tomonidan bajariladigan jarayondir.

Demak, ta’lim jarayoni o‘rganish va o‘rgatish, o‘rganib olish va uni xayotga tadbiq etish xususiyati bilan izohlanadi. O‘rganish (o‘qitish) - bu o‘qutuvchinin g o‘quvchilarga bilim, kunikma va malakalar berish, ularda yangi xaqiqatni ochishga qodir bulgan ijodiy, mantiqiy tafakkurni tarbiyalashdir.

O‘rganish- bu uquvchilarning uqituvchi tamonidan berilgan bilimlarni, kabul qilishlari jarayoni, o‘zlarida bilish qobiliyatlarini, fikrlash operatsiyalari va xarakatlarni tarkib toptirish jarayonidir. Bu passiv mushoxada jarayoni emas, balki uqituvchi tomonidan o‘quvchilarga beriladigan bilim va malakalarni faol ravishda qayta ishslash jarayonidir. U O‘rganishning asosiy mohiyati shundaki, bunda - o‘qish jarayonida o‘quvchilar mustaqil ravishda bilim ola bilish va bu bilimlardan foydalana olish ko‘nikmasini o‘z ichiga oluvchi aqliy va jismoniy mehnat elementlarini o‘ziga singdiradi. Ta’limning muvaffaqiyati o‘quv materiallarning mazmunigagina, ta’lim usullarigagina emas, balki ko‘p jihatdan o‘quvchining qanday o‘qiyotganligini bilishga, ya’ni o‘quvchining yosh xususiyatlariga, aqliy taraqqiyoti va faolligiga muvofiq malakalarni o‘zlashtirish jarayonining psixologik asoslarini bilishga ham bog‘liqdir.

O‘qish jarayoni - o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlariga ham, uning psixik rivojlanishining (aqliy, emotsiyonal, irodaviy jihatdan) individual tavsifnomasiga, unda o‘qishga nisbatan qaror topgan munosabatlariga, uning qiziqish-xavaslariga bog‘liqdir. Boshqacha qilib aytganda, ta’lim jarayoni o‘quvchiga nimani va qanday qilib o‘zlashtirishning oddiy bir xil natijasi emas, ya’ni sirtdan ta’sir qiladigan shart-



sharoitlarning oqibati emas, balki o‘quvchining individual-psixolok xususiyatlariga bog‘liq ravishda amalga oshiriladi.

Ta’limni ijodiy o‘zlashtirish, o‘rganish, bilim egallash 3 omilga:

1. Nimani o‘qitishga;
2. Kim o‘qitadi va qanday uqitishga;
- 3 Kimni o‘qitishga bog‘liq.

1-holda: o‘qitish xarakteri o‘zlashtirilayotgan materiallarga, uning mazmuniga va qanday tizimda yetkazib berilayotganligiga bog‘lik.

2-holda: a) o‘qituvchining uslubiy mahoratiga; b) ish tajribasiga; g) uning bilimiga bog‘liq;

3-holda: a) kimni, qanday o‘quvchini o‘qitishga; b) psixik rivojlanishining individual tavsifnomasiga; v) qiziqish va xavaslariga bog‘likdir.

O‘rganish - bilimlarni o‘zlashtirish informatsiya olish, esda saqlash va uni anglab qolishnigina emas, balki bilimlarni keyinchalik, o‘quv ishida shuningdek, mehnat jarayonida, umuman turmushga tadbiq qilish qobiliyatiga ega bo‘lishdir. Bilimlarni o‘rganib olish, uni o‘zlashtirish quyidagi psixologik komponentlar asosida bo‘ladi.

1. O‘quvchilarning o‘qishga ijodiy munosabatda bo‘lishi;
2. Material bilan bevosita tanishish jarayoni;
3. Olingan materialni faol ravishda qayta ishlash jarayoni bo‘lgan fikrlash (tafakkur)

4 Qabul qilingan va ishlab chiqilgan axborotlash (tafakkur). Qabul qilingan va ishlab chiqilgan axborotni esda olib qolish va esda saqlash jarayoni. Agar o‘quvchida o‘zlashtirishningana shu komponentlarini (tarkibiy qismlarini) hisobga olib ta’lim berilsa, har bir komponentda ta’limni o‘zlashtirish jarayoniga e’tibor berilsa, o‘quvchi uni muvafaqqiyatlari o‘zlashtiradi. O‘rganish - yo‘l-yo‘lakay, tasodifiy va rejali bo‘lishi mumkin. Yo‘l yo‘lakay o‘rganish - turli material va ma’lumotlarni turli sharoitda o‘rganishdir. Bunda o‘quvchi materialni izlanishlar, ko‘p kitoblarni mutolaa qilish orqali o‘rganadi. Bunday o‘rganish inson hayotining turli faoliyatları davomida ro‘y beradi. Rejali o‘rganish esa materiallarni muntazam ravishda reja asosida, maqsadga



qaratilgan faoliyat orqali o‘rganish demakdir. Shuning uchun ham o‘rganish—faoliyat hisoblanadi.

Jahon psixologlarining fikricha, bilimlarning boshqarishning mumkin bo‘lgan yo‘li - o‘zlashtirish jarayonini berilgan topshiriqning o‘zlashtirish jarayoni sifatida maxsus tashkil etishdir.

Pedagogik psixologiya o‘quv holatlaring asosiy shakllarini o‘yin, taqlid qilish, mehnat, takrorlash va yod olish, sinab ko‘rish va xatolarni aniqlash, mashqlanish va o‘quv vazifalarini hal qilish, mustaqil fikrlash, shuningdek hissiy aloqa qilish, narsalarni qo‘l bilan harakatga keltirish rolli o‘yinlar, o‘quv professional faoliyat kabilalar bilan belgilaydi. Bularning hammasi ta’limni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga, o‘rganish faoliyatini yengillashtirishga, yangi bilimlar haqida chuqur tasavvurlar qoldirishga, ularni xotirada uzoq vaqt saqlab turish va kerak vaqtda esga tushirishga yordam berish asosiy omillardan hisoblanadi. O‘yin bolalarning ijodiy faoliyati bo‘lib, atrof hayotdagi voqelikni aynan o‘zidagidek emas, balki uni o‘zicha aks ettirish, ba’zi narsalarni o‘zlashtirish, o‘ziga o‘ylab chiqarish jarayonidir. Bolalar o‘yinlarda xayol qiladi, ijod qilish elementlari ko‘rinadi, fikr yuritadi, ularni o‘z nutqida bayon etish orqali rivojlanadi. Har tomonlama rivojlanish shaxsni tarbiyalashning asosiy sharti, shaxsning ongli faolligidir.

#### “FIKRIY HUJUM” METODI

Mazkur metod o‘quvchilarining mashg‘ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta’minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag‘batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiyasidan ozod etish, muayyan mazvu yuzasidan rang-barang g‘oyalarni to‘plash, shuningdek, ijodiy vazifalarini hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo‘lgan fikrlarni yengishga o‘rganish uchun xizmat qiladi.

“Fikriy hujum” metodining asosiy tamoyili va sharti mashg‘ulotning har bir ishtirokchisi tomonidan o‘rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta’qiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag‘batlantirishdan iboratdir. Bundan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarining mashg‘ulot jarayonidagi erkin ishtirokini

ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida ushbu metoddan foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'laming kengligiga bog'liq bo'ladi.

"Fikriy hujum" metodidan foydalanish chog'ida o'quvchilarning soni 10-15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim mazmunini to'la va chuqur o'zlashtirishda takrorlash muhim ahamiyatga ega. Buning uchun takrorlash aniq bir maqsadga qaratilgan bo'lishi, u ongli ya'ni anglangan bo'lishi, takrorlash materialni esdan chiqarmasdan oldin bo'lishi, takrorlashda assotsiatsiya qonunlariga rioya qilib, materialni bir-biriga bog'lab takrorlanishi, qiyin materiallarni eng muhim xususiyatlarini ajratib, uni yon daftarga yozib yoki tagini chizib takrorlash muhimdir. Eng asosiy takrorlangan materialni ongda qayta jamlab chiqishdir. Bunda o'qib o'rganilgan material yotish oldidan yoki boshqa mashg'ulotlar bilan shug'ullanish jarayonida uni ichida takrorlab chiqilsa o'zlashtirilgan va o'zlashtirilmagan material aniq bo'ilib qoladi va o'quvchi o'zlashtirmagan materialni kitobni ohib o'qib olsa u material uning bilim boyligiga aylanadi.

Pedagogik faoliyat motivlarining mazmuni ta'lim-tarbiya ishini muvaffaqiyatini belgilovchi omil hisoblanadi. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish va uni qayta qurish o'qituvchi shaxsi oldiga katta vazifalar va talablar qo'yadi.

1. O'qituvchi o'zining sog'lom dunyoqarashi, aniq insoniy yo'nalishi, g'oyaviy-siyosiy e'tiqodining yuksak darajada ekanligi, o'z vazifasini vijdonan bajarishi;
2. Bolalarga, pedagogik mehnatga mehr qo'yishi, bolalar jamoasi bilan ishslash va birga bo'lishga moyilligi;
3. Tarbiyaviy ishlarning sifatiga ahamiyat berish va ularni hayotga e'tiqodli qilib tarbiyalash;
4. O'quvchilar, ota-onalar va turli millatlar orasidagi ijobiylari va samimiy munosabatlarni o'rnatilishi;
5. Ta'lim jarayonini takomillashtirish, unda o'quvchilarni bilish va fikr yuritish jarayonini faollashtirish. Mustaqil, faol va ijodiy tafakkurni shakllantirish;

Demak, o'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi o'zaro samimiy munosabat, bir-birini tushungan holda ish qurish, o'quvchining psixologik xususiyatlarini e'tiborga olib uni baholash, pedagogik bahoga nisbatan odillik, bola shaxsiyatini haqoratlamay ish qurish pedagogik odob va munosabatlarning asosini tashkil qiladi. O'qituvchi o'zaro munosabatlarni boshqarish uchun avvalo, mana shu munosabatning sababi va xarakterini bilishi shart.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Т.: Фан, 2006.
2. Ismoilova Z. Pedagogikadan amaliy mashg‘ulotlar. – T.: Fan, 2001.
3. Hasanboeva O., Djamilova N. Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi. - Т.: 2008.
4. Pedagogika. // M.Toxtaxodjaevaning umumiyl tahriri ostida. – Т.: O‘zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010
5. M.A.Tilakova “Alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirishning pedagogik masalalari”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2023-y.